

***Gaybullayeva Madinaxon Furqatovna***

*Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi*

*(PhD) Farg`ona davlat universiteti*

[gaybullayeva1988@mail.ru](mailto:gaybullayeva1988@mail.ru)

*ORCID ID: 0000-0001-6329-7137*

*Farg`ona davlat universiteti Botanika,*

*biotexnologiya va ekologiya kafedrasi talabasi*

***Xabibullayeva Dilobar***

***Kalit so‘zi:*** ekoturizm imkoniyatlari, ekoturizm, suv omborlari, ekoturistik marshrut, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada ekoturizmning rivojlanish va yutuqlari haqida tushunchalar berib o’tilgan. Farg‘ona viloyatida rivojlantirish imkoniyatlari va ekoturistik salohiyatidan oqilona foydalanish chora – tadbirlari yoritib berilgan.

***Ключевое слово:*** возможности экотуризма, экотуризм, водохранилища, экотуристический маршрут, охраняемые природные территории.

***Аннотация.*** В этой статье дается представление о развитии и достижениях экотуризма. Освещены меры по рациональному использованию возможностей развития и экотуристического потенциала Ферганской области.

***Keyword:*** ecotourism opportunities, ecotourism, reservoirs, ecotouristic route, protected natural areas.

***Annotation.*** This article provides insights into the development and achievements of ecotourism. Measures for the rational use of development opportunities and ecotouristic potential have been highlighted in the Fergana region.

O'zbekistonda ekoturizm-deyarli butun yil davomida quyosh porlayotgan hududga, quruq issiq yoz, iliq qish, yumshoq kuzi va yorqin gullaydigan bahor fasliga sayohat. Tabiat O'zbekiston landshaftlarini sariq, qizg'ish, quyuq yashil va ko'k ranglarning ustunligi bilan yumshoq ranglarda yaratdi. U nafislik bilan oltin qumlar qoplangan suvsiz cho'llarni, bahorda gullaydigan qizil baxmal gilamini, shovqinli tog ' daryolarini va chiroyli ko'k ko'llarni qoplagan kulrang dashtlarni va yashil vodiylarni surtdi. Ammo eng chiroyli tog'lar paydo bo'ldi: Shimoliy qismidagi past tog' tizmalaridan janubdagagi tik qoyalar bilan kuchli toshli tizmagacha – ular hech qanday sayohatchini befarq qoldirmaydi. O'zbekiston nafaqat buyuk madaniy me'ros, balki ko'p asrlar davomida yuqoriga ko'tarilgan minoralarning moviy gumbazlari ekanligini kam odam biladi. O'zbekiston bo'yab sayohat qilib, qadimgi shaharlarga tashrifni haqiqiy tog' qishloqlari hayotida, tog' yurishlari yoki sahroda tunashlarda kichik insaydlar bilan birlashtirish kerak. O'zbekistonda ekoturizm butun turizm sohasining to'laqonli va mustaqil qismi sifatida yaqinda rivojlna boshladи.

**Ekoturizm (ekoturizm, yashil turizm) - antropogen ta'sirga nisbatan ta'sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmnning bir shakл.**

Ekoturizm tabiiy turizm infrastrukturasining ajralmas qismi bo'lib, u faqat g'oyagina emas, balki umumiy turizmnning konkret xili, uning atrof-muhiga ta'siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo'lishi mumkin. "Ekoturizm" tushunchasi qo'riqxona zonalari va tabiiy parklarning hozirgi zamonaviy faoliyatida keng qo'llanilmoqda. Jahonda bu sayyohat turining jadal o'sishiga sabab faqat atrof muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki mashhur xordiq chiqarish joylari-tog' bag'ridagi kurortlar, iliq dengizlarning qirg'oqlari, tekisliklar va o'rmonzorlarning borgan sari ko'proq o'zlashtirilayotganligi hamdir.

Ko'pincha, ekoturizm atamasi o'rniga boshqa atamalar, ya'ni tabiiy turizm, barqaror turizm, yashil turizm, "ma'suliyatl" turizm va xayriya turizmi kabilarni ishlatishadi. Turizmnning bu turli xillari uchun ba'zi unsurlar bir xil bo'lsa ham bu atamalar bir-birining sinonimi hisoblanmaydi va biri ikkinchisining o'rnini egallamaydi. Ekoturizm-bu tabiiy turizm (tabiatga sayyohat) ning bir turi.

Unga tabiiy turizmning ba’zi bo‘laklari, masalan, sarguzashtli turizm-otda sayr qilishyoki kanoeda suzish kabilarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ekoturizmning quyidagi ta’rifi ko‘proq ishlataladi:

Ekoturizm-tabiiy turizm bo‘lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushinishni o‘z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat Ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo‘lib, “tabiiy muhit”, madaniy tarkiblarni, “Ekologik barqarorlik” mahalliy aholi uchun tegishlicha daromadni va foydalanilayotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o‘z ichiga oladi.



Ekoturizm turizmning boshqa turi kabi Ekologik barqaror bo‘lishi, sayyoohlarga zavq-shavq baxshetishi va mahalliy aholiga daromad keltirishi lozim. Bundan tashqari, tabiiy va madaniy muhitga “mos tushishi” kerak. “Mos tushishi” degan so‘zning ma’nosi shuki bu faoliyatning uslubi, hajmi va xili landshaftning ko‘لامи va xarakteriga, mahalliy aholining urf-odatlariga to‘g‘ri kelishi zarur. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro Ittifoqining ta’rifiga ko‘ra, “Ekologik turizm yoki ekoturizm-tabiat muhitga nisbatan ma’suliyat bilan sayohat qilish, tabiat hududlariga ziyon etkazmagan holda o‘rganish, hamda tabiatning betakror jalb etuvchi joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilishga ko‘maklashadi, atrof-muhitga “yumshoq” ta’sir etadi, mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta’minlaydi”<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Ekologiya xabarnomasi. Toshkent. 2007. № 6. 8-bet

Turizm jamiyati esa “ekoturizmni tabiiy hududlarga ma’suliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza etishni ta’minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi”<sup>2</sup>-deb hisoblaydi.



Yovvoyi tabiat umumjahon jamg‘armasi-“Ekoturizm-nisbatan tabiatga ziyon etkazilmagan hududlarga sayohat, madaniy-etnografik xususiyatlari haqida tasavvur olish maqsadida, ekoturizmning butunligini buzmagan holda, shunday iqtisodiy sharoitlar yaratadiki, unda tabiatni muhofaza qilishva tabiiy resurslar mahalliy xalqqa foyda keltiradi” – deb ta’rif beradi. Yana bir ta’rifda “Ekoturizm nafaqat ma’rifiy-ma’naviy maqsadlarni ko‘zlagan holda ekzotik tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o‘simlik dunyosiga sayohat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal qilish bilan bir-biriga bog‘liq majmualar yig‘indisi”<sup>3</sup> - deb tushuniladi.

Bu ta’riflar faqat juz’iy jihatdan bir-birlaridan farq qilsada, ularning asosiy xulosasi tabiatni asrash, o‘simlik va hayvonot dunyosini saqlash va ko‘paytirish, shu maqsadda muhofaza etiladigan hududlar, milliy tabiiy bog‘lar tashkil etish, mahalliy aholini yangi ish joylari bilan ta’minalash natijasida ularning turmush sharoitini yaxshilashdan, mahalliy va chet el investorlarini jalb etish orqali davlat byudjetini boyitish maqsadini nazarda tutadi.

Rossiyalik mutaxassislar I. Zorin va V. Kvartalnov ekoturizm tushunchasini ikki shaklda berishadi: birinchi shakl-ekoturizm “yovvoyi” tabiatdan turistlarning turishi va sayyohat qilishmuhiti sifatida bilvosita foydalanishga, lekin bunda turning barcha komponentlariga ekologik, texnologik

<sup>2</sup> Ekoliya xabarnomasi. Toshkent. 2007. № 6. 8-bet

<sup>3</sup> Ekoliya xabarnomasi, Toshkent, 2007, № 6, 9-bet

texnologiyalarni joriy qilishga yo‘naltirilgan turizm. Bu ma’noda ekologiya tur mahsulot atrof muhitga zararni minimallashtiradi hamda tarbiyaviy va rekrasjion ahamiyatga ega bo‘ladi. Ikkinchi shakli ekoturizm-sayyohat bilan tabiatga ekologik jihatdan yondoshuvining uyg‘unlashuvidir deb qaraladi. U yangi landshaftlar bilan tanishuv quvonchi hamda flora va fauna namunalarini o‘rganishlazzatini ularni muhofaza qilishimkoniyati bilan uyg‘unlashtiradi deb hisoblangan. Ekoturizmning asosiy resurslari sifatida qo‘riqlandigan qo‘riqxonalar, mahalliy va tabiiy parklar, noyob va oddiy landshaftlar ko‘zda tutiladi. “Ekologik turizm” tushunchasining alomatlaridan iloji boricha ko‘prog‘ini chuqurroq tushunishuchun I. Zorin va V. Kvartalnov o‘zaro bog‘langan “ekotizim”, “ekologiya”, “Ekologik sayyohat etikasi” kabi tushunchalar sistemasini taklif qilishadi. Ayniqsa, oxirgi tushuncha ahamiyatga molik. Uni jonli tabiatga, borilayotgan landshaftlarga, u yerda yashovchi kishilarga nisbatan hurmat kodeksi, deb sharhlanadi.<sup>4</sup> “Ekologik turizm” tushunchasini turlicha ta’riflashlarni tahlil qilib uni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, uning quyidagi belgilarini farqlash lozim:

-yovvoyi tabiatdan turistlar tashrif buyuradigan muhit sifatida bilvosita foydalanish;

-atrof muhitga minimal zarar etkazish;

-odamga rekrasjion va ijobiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish;

-yangi landshaftlar bilan tanishish, muhofaza qilishuchun flora va fauna namunalarini o‘rganish;

-turizmdan tushgan mablag‘lardan dunyodagi barcha hududlar flora va faunasini asrash va tiklash uchun foydalanish;

-barcha turistlar va xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarning jonli tabiatga va mahalliy aholiga hurmat kodeksiga rioya qilishlari va boshqalar.

“Ekologik turizm” tushunchasini umumlashtirish quyidagi xulosalarga asos bo‘la oladi: Turizmni tashkil qilishning yuqorida ko‘rsatilgan alomatlarida shakllangan tamoyillar lokal emas, balki global xarakterga ega. Shuning uchun bu tamoyillar jahonning ayrim qismlari yoki er, suv va havo bo‘shlig‘ining ayrim

---

<sup>4</sup>Туристические терминологический словарь, - М., 1999, 664 бет.

qismlarida emas, balki butun dunyodagi turistik faoliyat sohasiga taalluqli bo‘lishi lozim. Shuningdek “Ekologik turizm” tushunchasini nazariy asoslab berishmintaqada yashovchi ko‘pchilik aholining ongini ekoturizm talablariga moslashtirishga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, tabiiy boylikga zarar etkazmagan holda turistik faoliyatni rivojlantirishning optimal texnologiyasini asta-sekin shakllantirib boradi.

Shunday qilib, ekoturizm tizimi asosida turistik faoliyatning turli xillarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tamoyillar yotadi. Bular: bilimni oshiradigan yoki sarguzasht sayyohatlari (piyoda, otda, suvda, tog‘da, sayr va hokazo), talabalar ta’tillari, ormetologik turlar, ilmiy turlar va ekspedisiyalar, dam olishkuni ekskursiyalari, yozgi bolalar lagerlari va hokazo. Ekoturizmga bo‘lgan qiziqish haqiqiy turistik tajribaga talab oshib borayotgani hamda tabiatni qo‘riqlashga qiziqish kuchayayotgani tufayli paydo bo‘ldi. U tabiiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan moslashadigan hamda madaniyat va tabiatning tabiiy muhitda bir-biriga uyg‘unlashuvini targ‘ib qiladigan turizm xillarini o‘z ichiga oladi. Turizmni rejalashtirishga javobgar shaxslar, turoperatorlar, menedjerlar, marketing sohasi xodimlari, ommaviy axborot vositalari “ekoturizm” atamasini ancha keng ma’noda ishlatib kelishdi. Natijada bu tushuncha bir qator turistik mahsulotlarni bayon qilishuchun ishlatilib, bu ta’rif yuqorida bayon qilingan ta’riflarga to‘liq mos kelmaydi. “Ekoturizm” atamasining keng ma’noda qo‘llanilishi baxslarga sabab bo‘ldi va boshqa atamalar, masalan, “barqaror” turizm, “minimal ta’sirli” turizm, “hamkorlik asosidagi” turizm, “ma’suliyatli” turizm atamalarining ishlatilishiga olib keldi. Bu ta’riflardan hech biri yoki alternativ atamalar ekoturizm bilan turizmning boshqa xillari orasidagi chegarani aniq belgilab bera olmaydi.

Xulosa, O’tgan asrning 80-yillarida ekoturizmni rivojlantirishni birinchilardan bo’lib, boshlagan davlatlar AQSH, Kanada va Yevropa davlatlari bo‘ldi. Bu davlatlar hali ekoturizmning ilmiy nazariyasi, tamoyillari, amaliyoti va turlari to‘liq yaratilmaganligidan ekoturizmni o‘z davlatlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo‘yicha nomladilar. BMT 2002-yilni “Xalqaro ekoturizm” yili deb e’lon qildi. Hozirga kelib ekoturizm xalqaro hamjamiyatda

sayyoramiz tabiatini saqlab qolish va uni muhofaza qilishga bag'ishlangan tadqiqotlari xalqaro miqyosda kuchayib bordi. Ushbu yo'nalishda birgina 1999-yilda 400 dan ortiq ilmiy maqolalar xalqaro miqyosda tan olingan nashriyotlarda chop etildi. XX asr 90-yillarining boshlarida "ekoturizm" xalqaro mintaqaviy va milliy miqyosda rasmiy maqomga ega bo'lди. Ayni shu yillar Yevropada xalqaro ekoturizm ittifoqi ish boshladi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Hayitboyev Rahmatilla. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. T.: 2018.
2. Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 195-198.
3. Abdullayeva, M., & Gaybullayeva, M. (2022). No 'xatni fotosintez jadalligi va maxsulorligiga ekologik omillar ta'siri. ijodkor o'qituvchi, 2(22), 341-346.
4. Gaybullaeva, M. F. (2022). Influence of soil and climatic conditions of the experiment area in Fergana region on the weight of pea pods. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(6), 89-92.
5. Гайбуллаева, X. M. (2022). THE IMPORTANCE OF LINGUACULTURAL ANALYSIS IN LITERARY TRANSLATION. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(4).
6. Madina, G. (2023). OCH TUSLI ADIR BO 'Z TUPROQLARI GUMUSINI YAXSHILASHDA DON-DUKKAKLI O'SIMLIKlardan NO'XATNI ROLI. *PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(14), 239-242.
7. Gaybullayeva, M. (2023). DON DUKKAKLI EKINLARDAN NO'XATNI XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(20).
8. Gaybullayeva, M. (2023). DON DUKKAKLI EKINLARDAN NO'XATNI XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(20).
9. Мадина, F. (2023). УРУФ ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ВА МИНЕРАЛ ЎТИЛЛАР БИЛАН ОЗИҚЛАНТИРИШ МЕЪЁРЛАРИНИ НЎХАТ НАВЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШГА ТАЪСИРИ. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(33), 89-95.

10. Абдуллаева, М. Т., & Гайбуллаева, М. Ф. (2022). ОЧ ТУСЛИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРИНИНГ ГУМУСИНИ ЯХШИЛАШДА ДОН–ДУККАКЛИ ЎСИМЛИКЛАРНИНГ РОЛИ. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 158-164.
11. Гайбуллаева, М. Ф. (2023). УРУФ ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ВА МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАР БИЛАН ОЗИҚЛАНТИРИШ МЕЪЁРЛАРИНИ НЎХАТ НАВЛАРИНИНГ БАРГ САТҲИНИНГ ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИРИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(24), 86-95.